



ALISHER NAVOIY IJODIDA TUYUQ JANRI

Shohsanam Xazratqulova Esonbek qizi

Guliston davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sof turkiy janr hisoblangan tuyuq janri mumtoz adabiyotda hamda Alisher Navoiy ijodida muhim ahamiyat kasb etganini va tuyuq turlari, ularda ifodalangan ma'no-munosabat, ushbu janrdagi tajnislari to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: tuyuq, tajnis, Alisher Navoiy, badiiyat, oshiq, ma'shuqa, tajnissiz tuyuq, tajnisli tuyuqlar,

Mumtoz o'zbek she'riyatida shunday janrlar borki, she'riy san'atlarni mohirona qo'llash natijasida hosil bo'ladi. Bu esa asarning ta'sirchanligini hamda shoirning so'z qo'llash mahorati qanchalik yuksak ekanligini ko'rsatib beradi. Shunday she'riy janrlardan biri tuyuqdir. Ushbu she'riy jaur tajnis san'atini yuksak cho'qqiga olib chiqdi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Mumtoz adabiyotda Lutfiy, Navoiy, Ogahiy, Bobur ijodida tuyuqning yetuk namunalarini uchratamiz.

Tuyuq sof turkiy she'riyatgagina xos janrlardan bo'lib, turkiy she'riyatni haddi a'losida taraqqiy ettirishni ko'zlab qalam tebratgan Alisher Navoiy bu janrnini chetlab o'tishi mumkin emas edi. Hazrat Navoiy «Mezon ul-avzon» asarida boshqa bir qator she'rnavlari qatorida tuyuq haqida fikr yuritib, o'sha davr shoirlari ijodidan keltirilgan qator namunalarni tahlil etdi. "Va yana turk ulusi bataxsis chig'atoy xalqi aro shoyi avzonkim (ayniqsa, mashhur vaznlar), alar surudlarni (qo'shiqlarni) ul vaznlar bilan yasab, majolisda ayturlar: birisi tuyuqdirkim, ikki baytg'a muqarrardur va sa'y qilurlarkim tajnis aytilg'ay va ul vazn: ramali musaddasi maqsurdir, mundoqkim, tuyug':

Yo rab, ul shahdu shakar yo labmudur,

Yo magar shahdu shakar yolab mudur.

Jonima payvasta novak otqoli,

G'amza o'qin qoshig'a yo lab mudur?

Navoiy tuyuq va uning xususiyatlari bilan ham jiddiy shug'ullangan hamda bu janr uchun xos bo'lgan yetakchi belgilar, uning tarqalish doirasini ham ko'rsatib berishga muvaffaq bo'lgan. Navoiy fikrlaridan shu anglashiladiki, tuyuq turkiy xalqlar orasida keng tarqalib, to'ylarda, bazmlarda, yig'inlarda qo'shiq qilib aytiladigan vaznlarda yaratilar ekan. Tuyuq ikki bayt, ya'ni to'rt misradan iborat bo'ladi. Tuyuq tajnisli qofiyaga asoslangan va albatta ramali musaddasi maqsur vaznida bitiladi. Yuqorida Navoiy keltirgan tuyuq "yolabmudur" tajnisi asosiga qurilgan. Unda shoir ma'shuqa go'zalligini ta'riflaydi. Bu so'z birinchi misrada labmikan, ikkinchi misrada yalaganmikan, to'rtinchi misrada yoylabdimikan ma'nolarida qo'llanilgan. Shoir yorning lablari ta'rifini keltirar ekan, uni labmikan, shakarmikan, asalmikan yoki yorim



shakar, asal yalaganmikan, deya hayratlanadi. Keyingi misralarda ma'shuqaning qoshi tasvirlanadi. Bunda bu qoshmikan yoki u mening jonimga o'q otish uchun g'amza o'qlarini qoshlariga tizib yoylabmikan, deydi. Bunda shoir tajohilu orif vositasida oshiqning yorga munosabati mahorat bilan ifodalangan. Shoir o'zining tuyuqlarini jamlab, "Badoye' ul-vasat" devoni tarkibiga kiritgan. Devondagi tuyuqlarning jami soni-13ta. Ammo Alisher Navoiy faqat shu devonidagina emas, boshqa asarlarida ham tuyuq janri haqida to'xtalib o'tgan. Masalan, "Majolis un-nafois" asarida ham tuyuq namunalari va ularning mualliflari haqida so'z yuritadi, tuyuq va tajnis haqidagi o'z qarashlarini to'ldiradi. U o'z asarida Mirsaid taxallusli shoirning quyidagi tuyug'ini keltiradi va bu tuyuq ancha mahorat bilan bitilganligini qanoat bilan qayd qilib o'tadi:

Ey muhiblar etsangiz gar yoza siz,

Gul adoqinda humori yozasiz.

Gar men o'lsmam turbatimning toshig'a,

"Kushtai bir sho'x erur" deb yozasiz.

Bu orqali Navoiy tuyuq janrida faqat o'zini emas, boshqa ijodkorlar fikrini bilish hamda bu janrni mukammallashtirishni xohlaydi.

Tuyuqlarni ularda tajnisning ishtirok etishi yoxud etmasligiga qarab ikki guruhga bo'lish mumkin:

1) tajnisli tuyuqlar;

2) tajnissiz tuyuqlar.

Bular hajmi, vazni jihatidan bir- biriga mos keladi.

Tajnisli tuyuqlarning o'zbek adabiyotida eng ko'p tarqalgani va rivoj topgani a,a,b,a tarzida qofiyalanib, 1,2,4- misralarida tajnislar ishlatilgan tuyuqlardir. O'zbek shoirlari, asosan, tuyuqning shu turida asarlar yaratganlar, tuyuq deganda ko'proq shunday asarlarni ko'zda tutganlar. Hatto Alisher Navoiyning o'zi ham «shoirlar tuyuqda tajnis qo'llashga harakat qiladilar», desa ham tuyuqnavislikda uning tajnisli shaklidan chekingan emas. Navoiyning tajnissiz yozilgan tuyuqlari umuman yo'qdir. Tajnisli tuyuqlarning ikkinchi bir turida har to'rttala misrada hamjins, hamshakl so'zlar qofiya o'rnida keladi, bu so'z kamida to'rt xil ma'noni anglatishi mumkin, lekin adabiyot tarixida uning namunalari juda kam uchraydi.

Tuyuq haqidagi nazariy ma'lumotdan ma'lumki, badiiy asarda tajnis hosil qilish uchun faqat tildagi tayyor shakldosh (omonim) so'zlardangina foydalanish shart emas. Chunki qalam sohibi bir necha so'z qo'shilmasi orqali ham ohoriy, ilgari tutilmagan, ya'ni tamoman yangi tajnislar ijod qilishi ham mumkin. Masalan:

O'tkali ul sarvi gulrux soridin,

Yo'q xabar ul sarvi gul ruxsoridin.

Hajridin bog' ichra berur yodima

Qomatidin sarvu, gul - ruxsoridin.

Ushbu tuyuqda ham Navoiy shunday yo'l tutgan. 1-misradagi "sarvigul ruxsoridin" so'zlar tarkibiga 2-misrada "sarvigul ruxsoridin" va 4- misrada "sarvigul ruxsoridin" degan so'z tarkibi qofiya bo'lib kelgan. Lekin bu uch qofiyadagi so'zlarning



har biri alohida-alohida ma'noga ega. Lekin eski o'zbek alifbosida bu tajnis tarkibi bir xil yozilgan. 1-misrada "sarvi gulrux" so'zi istiora bo'lib, tik qomatli va gul yuzli yorni anglatib kelgan. Natijada satrdan: "Gul yuzli yor (yonidan) o'tgani", degan ma'no uqamiz. 2-misrada buning iloji yo'qligi mantiqan asoslanadi: "U sarvdek tik qomatli gulning yuzidan xabar yo'q". Bu yerda endi "gul" istiora sifatida to'g'ridan to'g'ri yorni anglatib kelyapti. "Ruxsor" so'zi esa o'z ma'nosida "yuz"ni bildirib turibdi. Lekin bunda ham so'z ko'chimi metonimiyaning "sinekdoxa" degan turi bor: uzv, ya'ni butunning bir bo'lagi ("yuz") tilga olinib, amalda butun (ya'ni yor)ning o'zi ko'zda tutilgan. 3-misrada: Yorning hajridan bog' ichra yodimga soladi..."- degan fikr ifodalangan. 4-misrada shoir endi "sarv" va "gul" so'zlarini o'z ma'nosida ishlataladi: "(Bog'dagi) sarv yorning qomatini, gul esa uningyuzi (ruxsori)ni (yodga soladi)". "Sarv" so'zi o'zbek mumtoz she'riyatida ko'p qo'llanadigan so'z timsollardan biri hisoblanadi. Aslida, u ignabarglilar turkumiga kiradigan archasifat daraxt turini anglatadi. U ingichka bo'lib o'sadi. Shuning uchun ko'plab ijodkorlar ma'shuqani sarv daraxtidek tik deb keltirishadilar. Tuyuq turkiy janr bo'lgani uchun uning aksar namunalarida qofiyaga olingan tajnislari, asosan, turkiy so'z va qo'shimchalar vositasida shakllantiriladi. Ammo bu tuyuqda shoir aynan kelib chiqishi forscha-tojikcha bo'lgan so'zlar vositasida tajnis yaratadi. Navoiy tuyuq yaratishda tajnis usullarining barcha xillarini ishga soldi, tarkibli so'zlarni ham turli ma'nolarda tuslay oldi. Navoiy tuyuqlarida sho'x humor, serzavq hissiyot, ba'zan esa satira tig'i ham bo'rtib ko'zga tashlanadi. Jumladan, ushbu tuyuqda shayx-zohidlarga qarshi nafrat ifodalangan:

Bovujud ul yuz erur gulgunasiz,
Kim ko'rinxur oldida gul gunasiz,
Yuz qiziqlik yo'qturur ey ahli zuhd,
Toki munkirsiz mayi gulgunasiz.

Alisher Navoiyning talantli izdoshi Zahiriddin Muhammad Bobur ham tuyuq janri takomilida katta iz qoldirdi, ya'ni original tuyuqlar yaratdi. U tuyuq nazariyasiga doir estetik qarashlarda ham, uning namunalarini yaratishda ham, o'z yaqin o'tmishdoshlarining, birinchi galda Navoiyning yo'lini davom ettirdi. Navoiy va Boburdan keltirilgan mana bu ikki tuyuqdagi mazmun va forma hamohangligi, tajnisli so'zlarni tanlash va qo'llashdagi yaqinlik buni isbotlaydi:

Navoiy:

La'lidin jonimg'a o'tlar yoqilur,
Qoshi qaddimni jafodin yo qilur,
Men vafosi va'dasidan shodmen,
Ul vafo, bilmonki, qilmas, yo gilur.

Bobur:

Qaddimni firoq mehnati yo qildi,
Qo'nglima g'amu anduh o'ti yoqildi.
Holimni sabog'a aytib erdim, ey gul,



Bilmon sanga sharh qilmadi, yo qildi.

Munis va Ogahiy tuyuqlaridagi tajnis qofiyalar ilgarigi shoirlarda uchraydi va o'zgarishlar bilan qo'llaydi. Masalan, birinchi tuyuq qofiyasi "yo qilg'usi", Navoiyda "yo qilur", Boburda "yoqildi", ikkinchi tuyuqning qofiyasi "yozmadi", Mirsaidda "yozasiz", Navoiyda "yozmadi" Lutfiyda "yozamen". Bu fikrlar orqali Navoiy ijodi o'z zamonasini undan keyingi shoirlar uchun xamirturush vazifasini ham o'tagan.

Alisher Navoiy adabiyotimiz tarixida tuyuqning nazariyotchisigina bo'lib qolmay, bu janrda ham o'z iste'dodini sinab ko'rgan va o'z devonidan bu janrdagi she'rlarga alohida o'rinn ajratgan san'atkordir. Shoir tuyuqlari turkiy she'riyatning eng yuksak namunalari ekanligi bilan ahamiyatlidir. Navoiy tuyuqlari mahoratining yangi qirralarigina emas, ayni zamonda, har bir badiiy detaldan muhim fikrlarni bayon etish vositasi sifatida foydalanishga harakat qiluvchi san'atkorligi ko'zga yaqqol tashlanadi. Shoir qofiya uchun tajnisning turli ko'rinishlarini istifoda etar ekan, shu vositalarni quruq so'z o'yini uchun emas, balki o'zining chuqur kechinmalarini ifoda etish maqsadiga bo'ysundiradi.

Yog'di javrung o'qi hajring toshidek,

Qildi qon ko'nglum ichin ham toshidek.

Sochqali mohim ayog'iga sipehr,

Ko'z yoshimning la'l'u durrin toshidek.

Ushbu tuyuqda oshiqning ayriliq tufayli chekkan iztiroblari haqida so'z yuritiladi. Ma'shuqaning jabr o'qlari shu qadar kuchli yog'ildiki, u ayriliq toshi singari qattiqdir va bu ko'nglimning ichi ham, tashqarisini ham birdek qon qildi. Sevgilimning oyog'iga sochilayotgan ko'z yoshim xuddi marvarid, dur toshidekdir. She'rdagi "toshidek" so'zi birinchi misrada tosh ma'nosida, ikkinchi misrada tashqari, oxirgi misrada dur toshi ma'nosida qo'llanilgan. Mazkur tajnis vositasida shoir oshiqning ishqda sobitligi, sabru qanoati, iztiroblarning cheksizligini shoirona tasvirlagan.

Xulosa qilib aytadigan bolsak, yuqorida aytilgan fikrlar va misollar orqali tuyuq janrida so'zlarni tajnis sifatida qo'llash so'z o'ynoqiligini, turkiy janr bo'lib, o'zbek tilining boy ekanligi va birgina ijodkor, o'zbek tilining rivojiga katta hissa qo'shgan Mir Alisher Navoiy tuyuq janri orqali misollar isbotlab bergenlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alisher Navoiy, Mezon ul-avzon. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. 16-tom. Toshkent. Fan. 2000
2. Rustamov, Navoiyning badiiy mahorati. T., 1979.
3. Alisher Navoiy, Asarlar, 15 tomlik, I-tom.
4. Alisher Navoiy. Hazoyin ul maoniy. III tom, 1960.
5. Alisher Navoiy. «Majolis-un-nafois», ilmiy-tanqidiy tekst, T., 1966.
6. Alisher Navoiy. Qomusiy lug'at. 1-2 jildlar. Mas'ul muharrir Sh. Sirojiddinov. - T.: Sharq, 2016



7. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tuyuq>
8. <https://tafakkur.net/tuyuqlar> =tavsiya qilingan